

TURK TARIXSHUNOSLIGIDA QORAXONIYLAR TARIXINING TADQIQ ETILISHI

Tojiboyev Ravshanbek Isajjon o`g`li
FarDU magistranti

Annotation: Mazkur maqolada O`zbekiston tarixining o`rta asrlar davrida (X-XIII asrlar) muhim o`rin tutgan Qoraxoniylar sulolasi tarixining zamonaviy turk tarixshunosligida tadqiq etilishi masalasi yoritilgan. Xususan, sulolaning kelib chiqishi, taraqqiyoti va davlatchilik tarixi yuzasidan turk tarixshunoslari ilmiy xulosalari boshqa mualliflar farazlari bilan qiyosiy tahlil qilinishi orqali yangi ilmiy farazlar taqdim etilgan.

Kalit so`zlar: Qoraxoniylar, nasab, davlatchilik, yabg`u, xoqon.

Tarixda o`z o`rniga ega bo`lgan qoraxoniylar tarixi, ularning kelib chiqishi masalasi tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin etiladi. Buning sababi qoraxoniylar haqida qoldirilgan manbalarda sulolaning kelib chiqishi haqida turli nazariyalarning ilgari surilganligidir. Qoraxoniylarning kelib chiqishi masalasidagi salmoqli tadqiqot ishlari rus, nemis va turk tarixchilari tomonidan ilgari surilgan. Quyida qoraxoniylarning kelib chiqishi masalasida turk tarixchilari tomonidan bildirilgan fikrlar va ularning tarixiy haqiqatga qay darajada muvofiq kelishi to`g`risida fikr yuritiladi.

Qoraxoniylar sulolasi tarixining turk tarixshunosligida tadqiq etilishi o`ziga xos davrni qamrab oladi. Ushbu mavzuning turk tarixshunoslari uchun muhimlik jihatni shundan iboratki, turkiy elatlari tarixining mazkur davri o`zbek va turk xalqlari tarixini bog`lovchi muhim bo`g`indir. Bu yo`nalishda faoliyat olib borgan turk tarixchilaridan Reshat Gench, Muhammet Kemaloglu, Mercil Erdogan, Tahsin Yazichi, Faruk Sumer, M.F. Ko`prulu, Sadettin Go`mech kabilarni sanab o`tish mumkin. Boshqa tadqiqotchilar qatori turk tarixchilari ham sulolaning kelib chiqishi masalasida bir necha guruhlarga bo`linadilar. Ba`zilari (Faruk Sumer, Reshat Gench)¹ qoraxoniylar nasabini yan`mo qabilasiga, boshqalari (M.F. Ko`prulu)² esa qarluq qabilasiga bog`laydilar. Sulola nasabini turgash qabilasiga daxldor deb hisoblovchilar (Sadettin Go`mech) ham alohida guruhni tashkil etadi.

Qayd etish joizki, hozirgi kunga qadar qoraxoniylarning kelib chiqishi, aynan qaysi turkiy qabilaga mansub ekanligi haqidagi qarashlar birmuncha ziddiyatlidir. Masalan, rus olimi V.V. Bartold ularni chigil qabilasiga aloqadorligiga ishora qilgan

¹ Kemaloğlu M. Karahanlıların Menşe ve kuruluş faraziyesi. // www.hikmetyurdu.com.

² Kemaloğlu M. Karahanlıların Menşe ve kuruluş faraziyesi. . // www.hikmetyurdu.com.

bo‘lsa³, xitoylik tarixchilar va Mahmud Qoshg`ariy asarlarini o‘rganib chiqqan turk olimi Yusufjan Yasin uning qarluqlarga bo‘ysungan uyg`urlardan kelib chiqqanligini isbotlashga uringan⁴. Bundan tashqari, IX asrda qarluq xoqoni o‘ziga yabg`u unvonini qabul qilib Qoraxoniylar davlatiga asos solganligini da`vo qiluvchilar (O.Pritsak) va bu g‘oyani rad qiluvchilar (O.Karayev) ham uchraydi. Asosan arab va fors manbalariga tayangan G‘arb tadqiqotchilarining aksariyati ham sulolaning kelib chiqishiga oid qarluq va yag‘mo nazariyalarini himoya qiladilar. Turk tadqiqotchisi Mehmet Fuad Ko‘prulu ham dastlab qarluq nazariyasini qo‘llab-quvvatlagan bo‘lsa-da, keyingi tadqiqotlari natijasida qoraxoniylarni qarluq - yag‘molardan kelib chiqqanligi haqidagi xulosaga kelgan⁵. Shunga qaramasdan keyingi davrda bu sohada olib borilgan ko‘plab numizmatik tadqiqotlar sulolaning qarluq konfederatsiyasi tarkibidagi chigil qabilasining edgishey urug‘idan kelib chiqqanligini ko`rsatmoqda⁶.

Sulola tarixini o`rganishda turk olimlari tomonidan ilgari suriladigan Sotuq Bug‘roxon dostoni⁷ ustida tadqiqot olib borish ham maqsadga muvofiqdir. Zero, dostonda badiylik elementlari katta o‘rin egallasa-da, undagi ayrim epizodlarning tarixiy haqiqatga muvofiq kelishi qiziqish uyg`otishi tabiiy.

Qoraxoniylar davlatidagi boshqaruvin tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlar turk mualliflari tomonidan birmuncha to‘liqroq o‘rganilgan. Davlat boshqaruvidagi lavozimlar va oliy hukmdor tomonidan taqdim etiladigan unvonlar ular tomonidan tizimli ravishda o‘rganilgan bo‘lsa-da, sulolaning kelib chiqishi haqidagi qarashlari birmuncha munozaralidir. Bizningcha, Qoraxoniylar sulolasining kelib chiqish tarixini turkiy chigil qabilasi bilan bog‘lash tarixiy haqiqatga mos keladi. Chigillar X asrda Markaziy Tyanshan va Yettisuv istiqomat qilgan ko‘p sonli qabila hisoblanganlar. Ular manbalarda “jikil” va “siqim” nomlari bilan tilga olinadilar. Arab mualliflaridan al-Marvaziy va al-Avfiy ularning qarluqlar bilan yaqin qarindoshlik aloqalari haqida va qadimgi turk bitiklaridagi “chik” nomi ularni anglatishini yozadilar. Agar bu nazariyani to‘g‘ri deb qabul qiladigan bo`lsak, ular qadimdan tele (to‘quzo‘g‘uzlar) qabila ittifoqi tarkibiga kirganliklari oydinlashadi. Chigillar uzoq vaqt mobaynida Oltoy va G‘arbiy Sibirda yashaganlar va keyinchalik boshqa qabilalar bilan kurashlar natijasida Tyanshan va Yettisuv vodiylariga kelib o‘rnashganlar⁸. Chigillarning nazarda tutilayotgan davrda ushbu mintaqaga ko‘chib kelganliklari Bartold asarida ham ta’kidlangan. “Hudud ul-olam” asari muallifi ularning Issiqko‘l atrofida yashaganliklarini yozadi. Bartold qoraxoniylarning chigillardan kelib chiqqanligi haqidagi fikrida Sharq manbalariga tayanganligi ma’lum. Darhaqiqat,

³ Bartold V.V. Сочинения. Т 1. Москва. 1963.

⁴ Yasin Yusufcan . Karahanlilarin hükümdar sülalesi üzerine. 2016. No. 7.

⁵ Караев О. История Карабахидского каганата (Х - начало XIII вв.). Фрунзе. 1983. С 57.

⁶ Кочнев Б. Нумизматическая история Карабахидского каганата. (991-1209). М. 2006. С 82.

⁷ Wikipedia.ru

⁸ Караев О. История Карабахидского каганата (Х - начало XIII вв.). Фрунзе. 1983. С. 74.

chigil atamasi XI asr manbalarida ko`plab turkiy xalqlarga nisbatan qo`llanilgan. Saljuqiylar sultoni Malikshohning Movarounnahrga yurishi chog`ida ham qoraxoniylar harbiy kuchining asosini chigillar tashkil etar edilar. O`g`uzlarning aksariyati ham Amudaryodan sharqdagi barcha qabilalarni “chigillar” nomi bilan ataganlar⁹. Bunga qo`sishimcha sifatida chigil nazariyasi haqligi haqidagi quyidagi kam o`rganilgan faktlarni ham berib o`tish mumkin. Masalan, Abulqosim Firdavsiy quyidagicha yozadi: “Shoh Gursganga qo`riqchilar qo`rquvdan qaltirayotgan turk-chigillarni keltirishdi” yoki “Shohning to`rtinchı o`g`li Qoraxonsovut kiygan holda otasi (Afrosiyob) oldiga keldi. Otasi unga turk-chigillardan iborat 30 ming jangda chiniqqan askarni va tarozlik, xallaxlik va o`g`uzlik 30 ming sinalgan otliqni berdi”¹⁰. Firdavsiy bu o`rinda epik tarzda o`g`uz-turkmanlar, qarluq va chigillarni afsonaviy shoh Afrosiyobning jangchilari sifatida tasvirlaydi. Lekin bu yerda Qoraxonga otasi bergen qo`shtinning yarmi chigillardan, qolgan yarmi esa qarluq, o`g`uz va tarozliklardan iborat bo`lganligi yoziladi. Firdavsiy asarining yana bir o`rnida sulolaning chigillardan kelib chiqqanligiga doir aniq fakt keltiradi: “U (Eron hukmdori Gushtasp) turonlik shoh (Erjasp)ga qarshi urushga kirish xayoli bilan taxtga o`tirdi.” Mazkur asarning asl nusxasida “turonlik” so`zi o`rniga “chigillik” so`zi ishlatilgan¹¹. Bu holatning tasodifiy bo`lishi amri maholdir.

Xulosa o`rnida aytish mumkinki, Qoraxoniylar davlati tarixi mavzusi bugunda o`zbek va turk tadqiqotchilarini o`ziga jalb etgan va ikki xalq tarixidagi X-XIII asrlardagi jumboqli masalalarini ochib berishi mumkin bo`lgan sahifadir. Mazkur mavzu bilan shug`ullangan ko`plab turk tadqiqotchilari sulola tarixini o`rganishda asosan arxeologik, yanada aniqroq aytganda numizmatik manbalarga tayanishga majbur bo`lishlari turli ziddiyatli nazariyalarning paydo bo`lishlariga olib kelgan. Shunga qaramay turk muarrihlarining mavzuga yondashishda umumturk tarixi nuqtayi nazaridan yondashishlari va turkiy xalqlar adabiyoti va folkloriga urg`u berishlari biz uchun ham foydali bo`lishi mumkin bo`lgan jihatdir. Sulola tarixini o`rganishda paydo bo`ladigan yangi nazariyalar ikki xalq tarixshunosligi uchun ham salmoqli ahamiyatga ega.

⁹ Бартольд В.В. Двенадцать лекций. Соч. Т V. С. 71.

¹⁰ Караев О. История Караканидского каганата (Х - начало XIII вв.). Фрунзе. 1983. С. 76.

¹¹ Караев О. История Караканидского каганата (Х - начало XIII вв.). Фрунзе. 1983. С. 77.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kemaloğlu M. Karahanlilarin Menşe ve kuruluş faraziyeleri. . // www.hikmetyurdu.com.
2. Бартольд В.В. Сочинения. Т 1. Москва. 1963.
3. Yasin Yusufcan . Karahanlilarin hükümdar sülalesi üzerine. 2016. No. 7.
4. Караев О. История Карабахидского каганата (X - начало XIII вв.). Фрунзе. 1983. С 57.
5. Кочнев Б. Нумизматическая история Карабахидского каганата. (991-1209). М. 2006. С 82.
6. Бартольд В.В. Двенадцать лекций. Соч. Т V. С. 71.